

AMIR SHOHMUROD - BUXORONING ADOLAT VA DINDORLIKDA TENGSIZ HUKMDORI

Lutfilloyeva Muattar Umidillo qizi

*O'zbekiston Milliy Universiteti "Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi
(Ma'naviyat asoslari)" mutaxassisligi magistranti.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoroning mang'it amirlari orasida alohida mavqega ega bo'lgan Amir Shohmurodning shaxsi, davlat arbobi sifatidagi faoliyati hamda insoniy fazilatlari haqidagi ayrim jihatlar tarixiy manbalar va ilmiy tadqiqot natijalari asosida ko'rib chiqildi. Shuningdek Amir Shohmurodning hukmdor bo'lishiga qaramay darveshona hayot kechirishi hamda oddiy xalq mehrini qozona olganligi bilan bog'liq tarixiy jarayonlar bir qator manbalar tahlili asosida ochib berilgan.

Аннотация: В данной статье рассмотрены личность Амир Шахмурода, который занимал особое место среди мангытских эмиров Бухары, его деятельность как государственного деятеля, а также некоторые аспекты его человеческих качеств на основе исторических источников и результатов научных исследований. Также раскрыты исторические процессы, связанные с тем, что, несмотря на статус правителя, Амир Шахмурод вел жизнь дервиша и сумел завоевать любовь простого народа, опираясь на анализ ряда источников.

Annotation: This article examines the personality of Amir Shahmurad, who held a special place among the Manghit emirs of Bukhara, his activities as a statesman, and certain aspects of his human qualities based on historical sources and the results of scientific research. It also reveals historical processes related to how Amir Shahmurad, despite being a ruler, led a dervish-like life and managed to win the affection of ordinary people, based on the analysis of several sources.

Kalit so'zlar: amir, hukmdor, Shohmurod, darvesh, Doniyolbiy, davlat, boshqaruv, manba, shariat.

Buxoroda hukmronlik qilgan mang'itlar sulolasining eng nufuzli hukmdori Amir Shohmurodning shaxsi, hayoti hamda hukmronlik davrida olib brogan islohotlari diqqatga sazovordir. Amir Shohmurodning tarjimai holi va ijtimoiy faoliyati, tarixdagi o'zni fanda hozirga qadar to'liq o'rganilmagan.

Bir qancha tarixchilar tomonidan mavzuga oid ba'zi tadqiqotlar olib borilgan. Qahramon Rajabov, Akbar Zamonov, Jamoliddin Abdukarimov va yana bir qancha tarixchilar tomonidan mavzuga oid tadqiqotlar olib borilgan. Mazkur maqolada ham Amir Shohmurodning shaxsiyati va faoliyatiga doir masalalar tadqiq etilgan.

Buxorodagi mang'itlar sulolasining yirik vakillaridan biri Amir Shohmurod zamondoshlari tomonidan Amiri Ma'sum, Amiri Kabir, Amiri G'oziy, Amiri Jannatmakon, Amiri Valiy va Ikkinchi Umar kabi faxrli nomlar bilan atalgan taniqli davlat arbobi hisoblanadi.

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori Akbar Zamonovning Muhammad Yaqub Buxoriyning asariga tayanib yozishicha, amir Doniyoldan: amir Shohmurod, Sultonmurod qo'shbegi, To'xtamish qo'shbegi, Fozilbiy, Darveshbiy, Mahmudbiy, Umarbiy, Rustam miroxur, Rajab Alibek, Muhammad Yusufbek, O'ljabek, Muhammad Yaqub Buxoriy ismli 12 nafar o'g'il farzand qoladi¹. ("Tarixi Turkiston" asarida o'g'illari 11 nafar, "Muntahab ut-tavorix" asarida 5 nafar deb keltirilgan.)

Shohmurodning tarbiyasi bilan otasi jiddiy shug'ullangan. Shohmurod yoshligida Shayx Muhammad Safar, Hoji Habibullo va Buxoroning boshqa mashhur ulamolaridan mukammal diniy tarbiya olgan. Buxoro madrasalarida o'qigan. U shariat va tariqatni puxta o'rgangan. Tasavvuf ta'limoti bilan jiddiy shug'ullanib o'zi ham madrasada dars bergan. Shohmurod ona tili va turkiy o'zbek tilidan tashqari arab va fors tillarini ham mukammal bilgan². Shohmurod yaxshi tarbiya ko'rgan bilimli inson bo'ganligi uchun ham xalq orasida obro'si baland bo'lgan.

Doniyolbiy otaliq hukmronligining so'nggi yillarida keksayib davlatni boshqarishga qiynalib qoladi, natijada mamlakatda tartibsizliklar va og'ir soliqlar natijasida xalqning ahvoli og'irlashdi. Bundan foydalangan ba'zi yirik amaldorlar aholiga nisbatan zulmni kuchaytirib yuboradi. O'z navbatida bu holat diniy va dunyoviy ilmdan yaxshi xabari bo'lgan Shohmurodni befarq qoldirmaydi.

"Tarixi Turkiston" asarida keltirilishicha, bir kuni Shohmurod To'ra otasiga arz qilib, hamma mamlakat qo'shbegi tasarrufiga o'tib qolgani, xalq aziyat chekayotgani haqida so'zlab, "Bizlar muhtojlik ahvolotidamiz, nima iloj bo'lur?" – deganda amir Doniyol "Men ham bu ishni bilaman, lekin chorasidan ojizman", - deb javob beradi. Shunda Shohmurod bu muammoni hal qilishni o'z zimmasiga oladi. Manbalarda aytilishicha Shohmurod Qo'qondan elchi kelganini bahona qilib qo'shbegini saroyga mashvarat uchun chaqirtiradi. Saroydagi maxsus xonalardan birida uni jallod kutib turadi. Shu tariqa davlat qo'shbegi qornidan chavoqlanib o'ldiriladi. Oradan ko'p vaqt o'tmay qozi sayyid Nizomiddin ham xuddi shu ahvolga tushadi. Xullas, ushbu zolim amaldorlarni qatl etish voqeasi xalq orasida Shohmurodning obro'sini oshirib yuboradi³.

Muhammad Hakimxon To'raning "Muntaxab at-tavorix" asarida keltirilishicha, Doniyol otaliq bir necha yil hukmronlik qilib nihoyat og'ir bir xastalikka yo'liqadi va shuning orqasidan vafot etadi. Uning farzandlari orasida jahondorlik alomatlari faqat

¹ Zamonov A, Abdukarimov J. Buxoroning darvesh hukmdori haqida ba'zi mulohazalar. – Toshkent: "O'tmishga nazar", 2020. – 11-19 b.

² Rajabov Qahramon. Amir Shohmurod yohud "amiri ma'sum" – Buxoro mavjlari, 2006. – 36-38 b.

³ Mirzo Olim Maxdum Hoji. Tarixi Turkiston. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – 242b.

Shohmurodbiy peshonasida yarqirab turar, ammo u o'sha kezlarda fakru fano tariqati yo'liga kirib, Buxoro ko'chalarida piri topshirig'iga ko'ra hammollik qilib yurardi. Amirilar bir og'izdan maqullab 1198/1883-84-yili Shohmurodbiyni hukumat tepasiga ko'tardilar⁴. Amir Shohmurodning amir taxtidan ko'ra darveshlikni Afzal bilganligi, Buxoro amiri bo'lganidan keyin ham darveshlik odatlaridan voz kechmaganligi uni boshqa mang'it amirlaridan ajratib turadi va juda ma'naviyatli hukmdor ekanligidan darak beradi.

Mang'itlar sulolasining yirik vakillaridan biri hisoblangan amir Shohmurod hokimiyat tepasiga kelgach o'zidan oldingi "soxta xonlar"ni va xon unvonini bekor qilib o'zini amir deb e'lon qiladi. Amirlik unvoni asosan qo'shin boshliqlari va joylardagi turli harbiy vakillarga berilgan bo'lsa, Muhammad Rahimbiy davriga kelib amir unvoniga ega bo'lgan birorta mansabdor shaxs qolmagan, ushbu unvon ilgari amalda bo'lgan amir-beklik unvonidan farqli o'laroq, xalifalik maqomi "Amir ul-mo'minin" sifatida talqin etilgan edi. Shohmurod davlat boshlig'i-amirlik unvonini ta'sis etar ekan, ushbu unvonning o'zbek va mo'g'ul urug'lari an'analari bilan emas, balki shariyat qoidalari asosida yuzaga kelganini asoslab beradi va shu davrdan boshlab mamlakat rasmiy Buxoro amirligi deb atala boshlandi⁵. Amir Shohmurod Buxorodagi mang'itlar sulolasi ichida birinchi bo'lib "amir" unvonini qabul qilgan hukmdor hisoblanadi.

Amir Shohmurod faoliyatining ilk yillarida Eron shohi Nodirshoh Afshorning harbiy yurishlari natijasida bosib olingan Amudaryoning chap sohilidagi mulklarni qayta qo'lga kiritib, bu hududlar amirlikka bo'ysundiriladi. Ya'ni, 1788-yil Buxoro amirligi tarkibiga mashhur Chohar viloyati (To'rt viloyat) bo'lgan andxo'y, Shibirg'on, Saripul, Oqcha viloyatlari qaytariladi. Buxoro amirligiga markazi Marv bo'lgan hozirgi Turkmanistonning yirik hududlari ham kiritiladi⁶. Markaziy hokimiyatni mustahkamlash uchun ukalarining har biriga bittadan viloyat hokimligini berib, amirlikdagi siyosiy tarqoqlikni tugatadi.

Shohmurod Buxoro amiri bo'lgach faol ichki va tashqi siyosat olib brogan. Ichki siyosatda u avvalo shariat qoidalari asosida davlatni adolat bilan boshqarishga va Buxorodagi turli elatlarni markaziy hokimiyat atrofida jipslashtirishga intilgan. Markaziy hokimiyatga qarshi chiqqan Urgut, Shahrisabz, Hisor, O'ratepa, Xo'jand hokimlarining o'zboshimchaligi ya'ni separatistik siyosatiga qarshi izchil kurashgan. Vaqf mulklarini tartibga keltirib masjidlariga yangi imom va muazzinlar, madrasalarga mudarrislar, ziyoratgohlarda shayxlar tayinlagan hamda ular ustidan nazorat o'rnatgan.

⁴ Muhammad Hakimxon To'ra. Muntaxab at-tavorix. Fors-tojik tilidan tarjima, muqaddima, izohlar muallifi Sh.Vohidov. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. – 716b.

⁵ Zamonov A, Abdukarimov J. Buxoroning darvesh hukmdori haqida ba'zi mulohazalar. – Toshkent: O'tmishga nazar, 2020. – 11-19b.

⁶ Zamonov A, Egamberdiyev A. Buxoro amirligi tarixi (XVIII asr o'rtalari – XIX asr o'rtalari). – Toshkent: Tamaddun, 2022. – 48b.

Soliq tizimi, qozixonalar va qo'shin faoliyati ham shariat asosida qayta tashkil qilingan⁷. Amir Shohmurod amalga oshirgan bu tadbirlar natijasida mamlakatda tartib o'rnatilgan.

Qahramon Rajabovning manbalarga tayanib yozishicha Amir Shohmurod 1785-yilda amirlik hududida pul islohotini o'tkazib, sof kumush va oltindan tangalar zarb qildirgan. Ushbu tangalarda ilk marta "amir" unvoni tilga olingan. Bu o'rinda "amir" so'zini "amir ul-mo'minin" – "mo'minlar amiri" ma'nosida sharhlash mumkin. Buxoro amirlari aynan Shohmurod davridan boshlab arab xalifalari va Usmonli turk sultonlari singari o'zlarini butun musulmon dunyosining diniy hukmdori hisoblab, "Buxoro – islom dinining tayanchi va qudrati" degan fikrga tayanganlar. Amir Shohmurod bundan tashqari, moliyaviy, ma'muriy, sud va harbiy sohalarida ham kata islohotlarni amalga oshirgan. U muxtasib (rais) mansabi va qo'shinda qoziaskar lavozimini joriy etgan. Shuning uchun ham zamondoshlari va kelajak tarixchilari Shohmurodni "Amiri ma'sum" – "Begunoh amir" va "Umari soniy" – "Ikkinchi Umar", "G'oziy" unvonlari bilan tiga olishadi. Bundan tashqari Shohmurodni yoshligida otasi tomonidan "Begijon" deb e'zozlanganligini sharqhunos olim German Vamberi "Buxoro yohud Movarounnahr tarixi" (Sankt-Peterburg, 1873) kitobida ta'kidlab o'tadi⁸.

Muntaxab ut-tavorix asarida Amir Shohmurodning tashqi siyosati haqida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan:

"Hukumati davomida biror soat davlat ishidan bexabar bo'lmadi. O'zbek amirlari orasida, balki, dunyoning hech yerida dindorlik va insoflilikda unga o'xshagani hech bir zamonda bo'lmagan. Ko'p vaqtini shia ahliga qarshi urushlarda o'tkazdi. Bu yo'lda otining tuyog'i Mashxaddan o'tib, to Qadamjo nohiyasigacha ytgan edi. O'sha paytda Marvi Shohijahonda Eron hokimi Boboxon axta tomonidan noiblikka qo'yilgan Bayramalixon hokimlik qilardi. Shohmurodbiy bu mamlakat ustiga bostirib borgach, bir hamla bilan Marvi Shohijahonni egalladi. Juda ko'p shialarni o'ldirib, Bayramalixonning qo'li va kelinu nabiralari asir qilib Buxoroga olib keldi. Bayramalixonning esa boshini kestirdi⁹. Amir Shohmurodning ichki va tashqi siyosatda amalga oshirgan islohotlari natijasida mamlakatda birmuncha osoishtalik taminlanib davlatning markazlashivuga olib keldi.

Amir Shohmurod hukmronlik qilgan 15 yil ichida Buxoro va Samarqandda ko'plab madrasalar, masjidlar, xonaqolar va turli binolar qurilgan. Xususan, Zarafshon vodiysidagi dehqonchilikka katta e'tibor qaratilib, Zarafshon daryosidan Qozonariq, Tayman arig'i, To'g'uzariq degan ariqlar, Oqdaryo va Qoradaryodan yangi ariqlar

⁷ Rajabov Q. Amir Shohmurod yoxud "amiri ma'sum". – Buxoro mavjlari, 2006 №1 – 37b.

⁸ Rajabov Q. Amir Shohmurod yoxud "amiri ma'sum". – Buxoro mavjlari, 2006 №1 – 37b.

⁹ Muhammad Hakimxon To'ra. Muntaxab at-tavorix. Fors-tojik tilidan tarjima, muqaddima, izohlar muallifi Sh.Vohidv. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. – 21b

chiqarilgan hamda boshqa sug'orish inshootlari qurilgan¹⁰. Shohmurod xalq manfaatlarini o'ylagan oliyhimmat hukmdor bo'lgan.

Akbar Zamonov manbalarga tayangan holda Amir Shohmurodning shaxsiy hayoti va fazilatlarini haqida quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: "Ahmad Donishning qayd etishicha: "Amir Shohmurodning kundalik yeydigan taomlari quruq non va bir kosa suv bo'lgan". Boshqa bir tarixchi Muhammad Hakimon To'ra: "Shohmurodbiyning yeydigan taomlari kishi yeydigan darajada bo'lmay, o't – o'lan, sut-qatiq va dukkakli o'simliklar bilan taomlangan" ligini yozgan. U har o'n besh kunda bir marta juz'I jon (g'ayriddinlardan olinadigan to'lov) solig'idan yig'ilgan mablag' hisobidan chorak go'sht olib, o'z ayoliga nafaqa qilar edi. Davlat amaldorlari va avomning to'ylariga bormas, hadyalar qabul qilmas edi.

O'rta Osiyoga tashrif buyurgan vengriyalik sayyoh Armeniy Vamberi o'zining "Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi" asarida ushbu hukmdor to'g'risida ba'zi salbiy fikrlar yozgan bo'lsada, uning oliyjanobligini ham tan olgan. Amiri ma'sum otasidan qolgan merosdan voz kechib: "Ommaga xayr tarqatuvchilarga beringlar, meros moli bilan qo'limni kir qilishni xohlamayman, bu molar kimlardan yig'ilgan bo'lsa, shularga qaytarilsin, iloji boricha mukofot tarzida berilsin", deydi va keyin otasining hukmronlik davridagi falokatlar uchun butun xalqdan uzr so'raydi"¹¹.

Amir Shohmurod 1800-yil 30-noyabrda vafot etgan. Tarixchi Muhammad Hakimxon To'raning "Muntaxab at-tavorix" asarida Shohmurodning vafoti sababi haqida shunday ma'lumot keltirilgan: "Shohmurodbiy boshiga yana Xo'jandni bosib olish hoy-u havasi tushib, katta qo'shin bilan viloyat kelinchagi tomon yo'naldi. Bir necha masofani bosib o'tgach, ul shaharni uzukning qoshidek o'rtaga oldi. Xudoyorbiyning to'ng'ich o'g'li Bekmurodbiy o'q-u to'fang otishga mashg'ul bo'ldi. Uch kundan so'ng Shohmurodbiy Ho'qand tomondan vahimaga tushib, qaytib ketdi. Ammo, Xo'jandning xos-u omi va qishloqlarini talon-taroj qilib, aholisini Samarqandga ko'chirib ketdi. Tun yarmidan oqqanda esa Shohmurodbiy u yerdan ham ko'chib, Jizzaxga keldi. Shohmurodbiy Xo'janddan ko'chirib keltirilgan odamlarni Samarqandga joylashtirdi va ularni Samarqandni obod qilish ishlariga buyurdi. O'zi esa Buxoro tomonga qaytdi. Bu so'fi sifat amirning karomatli va odatdan tashqari ishlaridan biri shu bo'ldiki, o'sha Xo'jand safaridan qaytishda kasalga chalingach, ko'rgan odamiga qarab "bizning ishimizni valiyalar sultoni Muslihiddin Xo'jandiy bir yoqlik qildi. Tag'in xudo biladiyu, bu kasaldan tuzalmasam kerak", degan ekan. Ittifoqan bir necha kundan so'ng, 1212-yili (1800) haqning chaqiruv xitobiga "labbayka" deya javob berdi"¹².

¹⁰Rajabov Q. Amir Shohmurod yoxud "amiri ma'sum". – Buxoro mavjlari, 2006 №1 – 38b.

¹¹ Zamonov A, Egamberdiyev A. Buxoro amirligi tarixi (XVIII asr o'rtalari – XIX asr o'rtalari). – Toshkent: Tamaddun, 2022. – 52b.

¹² Muhammad Hakimxon To'ra. Muntaxab at-tavorix. Fors-tojik tilidan tarjima, muqaddima, izohlar muallifi Sh.Vohidv. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. – 47-48b

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Amir Shohmurod Buxoro amirligi tarixida o'z o'rniga ega bo'lgan yirik davlat arbobi va ma'rifatparvar hukmdor edi. U yirik davlat egasi bo'lishiga qaramay pichoq qini yasab halol mehnati bilan oila boqqan. Muhammad Hakimxon to'ra tabiri bilan aytganda "o'zbek xonlari va amirlari orasida, balki, dunyoning hech qayerida dindorlik va insoflilikda unga o'xshagani hech bir zamonda bo'lmagan". Amir Shohmurod hukmronligi davrida davlatda tinchlik va osoishtalik o'rnatilib, amirlik hududi gullab-yashnadi. Shohmurod o'zining yuksak e'tiqod va iymoni bilan davlatni boshqardi. Ijtimoiy, iqtisodiy hamda madaniy sohalarda islohotlar o'tkazib adolatli va xalq suygan hukmdorga aylangan.